O‘zbekiston iqlim sharoitidan kelib chiqadigan bo‘lsak, «yashil» energiya manbalarining qariyb **97 foizi** quyosh energiyasiga to‘g‘ri keladi. Yurtimiz hududlarida quyosh energiyasini generatsiyalash qudrati – 525 dan 760 milliard kVt/soatgacha. Buning sababi, yiliga quyoshli kunlar soni 320 kun va faol quyosh soatları soni o‘rtacha 3000 soatni tashkil qilishidir.

Bu qayta tiklanuvchi energiya manbalarini barcha jabhalarda keng joriy etish uchun qulay imkoniyat aslida. Bu imkoniyatdan mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini oshirishda yetaricha foydalanish, har bir sohaga «yashil» iqtisodiyot tamoyillarini olib kirish yo‘llari Saylovoldi dasturida aniq aks etgan.

Jumladan, qayta tiklanuvchi va muqobil **energiya manbalarini sohasida bozor mexanizmlarini tadbiq etish**, energiya resurslari bozorida xususiy sektor ishtirokini kengaytirishni taklif etmoqdamiz. Bu orqali **aholining muttasil oshib borayotgan energiya ehtiyojini qondirish** mumkin bo‘ladi.

Avvalo, chekka va olis hududlarda qayta tiklanuvchi va muqobil energiya manbalaridan foydalanuvchilar faol qo‘llab-quvvatlanadi. Ular uchun jozibador loyihibar taklif etiladi. Xususiy investorlar uchun imtiyoz va preferensiyalarni joriy etish orqali ham sohaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish ko‘zda tutilgan.

Dasturda iqtisodiyotning ko‘p resurs talab qiladigan – energetika, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport kommunikatsiya tizimi va kommunal sohalarida energiya, resurs tejovchi va boshqa innovatsion ekologik hamda **raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni qo‘llab-quvvatlash** ko‘zda tutilgan. Ularni hayotga tadbiq etish orqali avvalo, aholining ehtiyojlarini qondirib, farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish uchun moddiy ne‘matlarni yaratishning barqaror ravishda ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ko‘paytirib borish imkoniyatlari kengayadi.

Ikkinchidan, mamlakatdagagi asosiy ishlab chiqaruvchilar, ayniqsa, yirik korxonalar yashil texnologiyalariga yo‘naltiriladi.

Butun dunyoda, qolaversa, mamlakatimizda ham tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni tejash va biologik resurslarning qayta tiklanishini ta‘minlash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Parij bitimi doirasida, O‘zbekiston 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan issiqxona gazlari tashlanishini 35 foizga kamaytirish majburiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

2026-yilga borib, «yashil» energiya ulushini 8 ming MWtqacha oshirish rejalashtirilgan, bu esa karbonat angidrid chiqindilarini 5 million tonnaga kamaytirish imkonini beradi.

Tadqiqotlardan ma‘lum bo‘lishicha, O‘zbekiston uglevodorod energiyasi – neft, gaz, ko‘mirdan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning kamida **4,5 foizi** yo‘qotmoqda. Qolaversa, mamlakatdagagi energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarning **salkam yarmi eskirib bo‘igan**. Ularni tiklash yoki modernizatsiyalash esa katta mablag‘ni talab qiladi. Buning o‘rniga ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan samarali hisoblangan «yashil energetika»ga o‘tish har jihatdan afzaldir.

Uchinchidan, O‘zbekiston investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida «Yashil viza» (Green Visa) dasturini joriy etish taklifi ilgari surilgan. Bu orqali mamlakatimizga tabiiy resurslardan samarali foydalanish uchun kapital jalb qilinishi e’tiborga loyiqdir.

Buning natijasida dunyoning rivojlangan “yashil” ishlab chiqaruvchilari mamlakatimizga kirib kela boshlaydi va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini hosis qiluvchi texnologiyalar bozorida kuchli raqobat shakllanadi. Natijada aholining va kichik biznes subyektlarining “yashil” energiya manbalaridan foydalanish imkoniyati sezilar oshadi, mahsulot va texnologiyalar tannarxi pasayadi.

To‘rtinchidan, tarmoqlar va hududlarning «yashil iqtisodiyotga o‘tish indeksi»ni ishlab chiqish taklifi ilgari suriladi. Bu bizga nima beradi?

Avvalo, mamlakatimizda «yashil» iqtisodiyotga o‘tish borasida keng ko‘lamda sharoit va imkoniyatlar yaratish, undan maqsadli foydalanish orqaligina ko‘zlanan natijalarga erishish mumkin. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari hamda hududlarda bu imkoniyatlardan foydalanish darajasiga baho berish uchun ham «yashil» iqtisodiyotga o‘tish indeksi» talab etiladi. Qolaversa, «yashil» iqtisodiyot mamlakatimiz kelajagi ekan, qaysi tarmoq yoki hududning bunga tayyor ekani yoxud orqada qolayotgani yaqqol ko‘rinadi.

Bugun mamlakatimizda korxona va tashkilotlarga, aholining turli qatlamlariga muqobil energiya manbalaridan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonida uglerod sarfini kamaytirish, «yashil» texnologiyalar»ni qo‘llash va tegishli asbob-uskunalar xarid qilish uchun imtiyozli yoki foizsiz kreditlar berilmoqda, subsidiyda hamda grantlar, soliq imtiyozlari taqdirm etilyapti. Bizning ayni shu sa‘y-harakatlarimiz, iqtisodiyot tarmoqlarida hammasi «yashil» bo‘lishi uchun qilinayotgan ishlar natijasi ham yuqorida taklif etayotganimiz – «yashil» iqtisodiyotga o‘tish indeksi»da yaqqol ifodasini topadi.

“Yashil” iqtisodiyot (green economy) – bu insonning tabiat resurslariga mas’uliyatlari munosabatini o‘z ichiga olgan va farovonlikning o‘sishi va tabiiy resurslarning qayta tiklanishini ta‘minlashda qoldirmasligimiz zarur. Ayniqsa, bu jarayonda davlatning o‘rni, bozor mehanizmlari uchun yaratilayotgan shart-sharoit sohaning nechog‘li rivojlanib ketishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

«Yashil» iqtisodiyotga o‘tish birdaniga amalga oshadigan tezkor jarayon emas, albatta. Bu borada qanday moliyaviy instrumentlardan foydalanish muhimligini e’tibordan chetda qoldirmasligimiz zarur. Ayniqsa, bu jarayonda davlatning o‘rni, bozor mehanizmlari uchun yaratilayotgan shart-sharoit sohaning nechog‘li rivojlanib ketishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.



loq xo‘jaligidagi innovatsiyalar, barqaror shaharlar, chiqindilarni oqilona boshqarish, o‘rmon hududlarini kengaytirish, cho‘llanishni qisqartirish kabi ko‘p qirallari chora-tadbirlar ham ilgari surilmoqda.

«Yashil» iqtisodiyotga o‘tishda navbatda qadam – aholini ekologik toza tovarlar sobib olishga undash, yashil texnologiyalarga tayanuvchi tadbirkorlik subyektlarini rag‘batlantirish, qurilishda, energiyani ko‘p talab qiluvchi tarmoqlarda energiya samarador texnologiyalarini joriy qilishdir. Ushbu tizimni yaratishda davlatning o‘zi birinchi navbatda tariqiga soluvchi vazifasini bajarishi kerak.

Bugungi global masalalardan yana biri **atmosfera havosiga chiqarilayotgan zaharli gazlar miqdorini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash** hisoblanadi. Zotan, «yashil» iqtisodiyotning asosiy tababi ham umumi iqtisodiyoti tabiat va atrof-muhitga zarar keltirmasdan rivojlanirishdan iboratdir.

O‘zbekiston Ekologik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko‘rsatilgan nomzodning saylovoldi dasturida **atmosfera havosi ifloslanishi muammosiga yechim bo‘ladigan bir qator takliflar** ilgari surilmoqda.

«Yashil» iqtisodiyotga o‘tishning muhim bosqichi transportlardan chiqadigan chiqindilarni kamaytirishdir. O‘zbekistonda 2022-yilda atmosferaga tashlanmalar miqdori **2,057 million tonnani** tashkil qilgan bo‘lsa, shundan **63 foizi** transport vositalari, **37 foizi** sanoat va ishlab chiqarish korxonalarini hissasiga to‘g‘ri keldi. Shuning uchun ham bugun hayotimizning ajralmas qismiga aylangan transport vositalari va ulardan chiqayotgan zaharli gazlar muammosiga yechim topishimiz shart.

Shuningdek, 2022-yilda birligina Toshkent shahrida transport vositalardan atmosferaga chiqarilgan ifloslaniruvchi moddalar miqdori **403 ming** tonnani tashkil etgan bo‘lsa, mamlakat bo‘yicha bu ko‘rsatkich **1 million 296,9 ming** tonnaga yetgan. Mana shu raqamlarning o‘ziyoy mamlakatimizda uglevodorod xomashyo bilan yuradigan transport vositalari kelajagi haqida jiddiy o‘ylab ko‘rishga undaydi.

Saylovoldi dasturida ushbu muammosha alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu boradagi eng muhim tashabbus – **2030-yildan boshlab, mamlakatda ichki yonuv dvigateli yengil automobilarni soitish, chetdan olib kirishni taqilash** taklif etilyapti. Shu bilan birga, atmosferani ifloslanirishda yuk tashuvchi yirik mashinalarning ulushi hisobga olinib, yuk tashish yirik yuk mashinalaridan temir yo‘llarga va atrof-muhitga kamroq ta’sir ko‘rsatadigan boshqa transport turlariga o‘zgartirishimiz zarur.

Bunday strategik maqsadlar dunyoning rivojlangan mamlakatlarida allaqachon kun tartibiga chiqqan. Xususan, Yaponiyada qayta tiklanuvchi energiya manbalarini hissobiga 2050-yilga kelib, avtotransportlardan atmosferaga tashlanmalarni nol foizga tushirish rejalashtirilgan. Buyuk Britaniya esa 2030-yilga borib, dizel va benzinli avtomobillar sohilishini butunlay taqilamoqchi. AQShda 2030-yilga kelib, barcha yangi yengil avtomobil va yuk mashinalarining 50 foizini nol chiqindili transportlarga almashtirish rejalashtirilgan.

Dunyoda inson faoliyati natijasida har yili atmosferaga 20 milliard tonna karbonat angidrid gazi chiqariladi va 300 million tonnadan ortiq plastik chiqindilar hosil bo‘ladi. Yashil iqtisodiyot tamoyillarining eng asosiyalaridan biri esa, barqaror ishlab chiqarish va iste’molning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, shuningdek, kam uglerodli, resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy qilishdan iboratdir.

Yangi iqtisodiy modelga o‘tish bosqichma-bosqich yondashuvni tabal qiladi. O‘tishning asosiy bosqichlarini Yevropa Ittifoqi tomonidan joriy etilayotgan ekologik tashabbuslar misolida ko‘rish mumkin.

Bunda birinchi bosqichda atrof-muhitga zarar yetkazuvchi ishlab chiqarishga investitsiyalarni kamaytirish muhim hisoblanadi. Shunday qilib, Yevropadagi ko‘plab banklar 2022-yildan boshlab gaz loyihamalariga kredit berishni to‘xtatmoqda. Bu nafaqat sanoatni imtiyozli davlat kreditlaridan mahrum qiladi, balki xususiy investorlarni jaib qilishni ham kamaytiradi.

O‘zbekiston Ekologik partiyasining nomzodi tomonidan taklif etilayotgan har bir dasturiy yo‘nalish zamirida mamlakatimizni “yashil” tamoyillarini asosida barqaror rivojlantirish, sova toza atrof-muhit yaratish, inson va tabiat uchun birdek xavfsiz hayot bunyod etish kabi egzgu maqsadlar yotadi.

Xalqimizni, ekologiyaga befarq bo‘imagan barcha fuqarolarimiz dasturimizda belgilangan ustuvor vazifalarini amalga oshirishda, atrof-muhitni muhofaza qilish va bebabu tabiyyiy boyliklarini asrab-avaylashdek muhim maqsadlarga erishishda birgalikda faol ishtirok etishga chaqiramiz.

Ona tabiatimizni asrash masalasiga befarq bo‘imang!

Xayrullo GAPPOROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri
o‘rinbosari,
O‘zbekiston Ekologik partiysi fraksiyasi rahbari.



SINFDOSHLAR UCHRASHUVI DABDABA AYLANMASIN

Bu mavzuda yozmoqchi emasdim, ammo ko'rgan-eshitganlarim xayolimdan bir-bir o'taverib, menga tinchlik bermadi. Keyingi paytda azaliy urf-odatlarimiz qatoriga qo'shilayotgan turli zamonaviy to'y-ma'rakalar kimlar uchun shodlik, kimlar uchun g'am keltiryapti. Bularning orasida "Sinfoshlar uchrashuvu" tadbiri ham bor. To'g'ri, bunday diyordorlashuvlarning o'zgacha zavqi ham bor. Gap sinfdoshlar uchrashuvu haqida emas, uning qay darajada o'tkazilayotganida.



"DADA, NEGA YOLG'ON GAPIRDIK?"

Qodirqul sinfdoshlar uchrashuviga kamida o'n marta taklif qilindi. Har bir taklifga rad javob qaytarildi. Uning yashash sharoitini – 3-4 oydan beri ishsiz qiynalib qolganini, o'g'illari hali kichik bo'lgani sababli faqat xotining farroshlikdan topadigan puliga kun kechirayotganini yaqin do'stlari yaxshi bilardi. Shu sababli undan uchrashuv uchun pul olinmasligi, boshqa sinfdoshlardan yig'ilgan pul yetarli ekanligi tushuntirildi. Ammo u baribir unamadi...

Uchrashuv bo'ladigan kuni darvoza yoniga bir mashina kelib to'xtadi. Undan bashang kiyungan bir kishi tushib, eshik qoqdi.

- Qodirqul, ho've, Qodirqul.
- Labbay, assalomu alaykum, - deb ichkaridan bir bala chiqib keldi.

- Qodirqulning o'g'limisan? Dadangni chaqir!
- Dadamning ozgina mazalari bo'Imagan edi, shunga balnisaga ketdilar.

- Eh, mayli, kelsa ayt, sinfdoshlarining yubileyga sizni olib ketish uchun kelgan ekan, deb. Ortimizdan borsin!

Qodirqulning o'g'li "xo'p", deb, ortiga qaytdi.
Uya kirib dedi:

- Dada, nima uchun yolg'on gapirdik, nega "yubi-ley"ga borishini xohlamayapsiz?

- Katta bo'sang, tushunasan!

TO'RTOVLON SINFDOSHLARINI ALDADI

Qorovultepa qishlog'idiagi maktabni bundan 25 yil ilgari bitirgan sinfdoshlarining 4 nafari yig'ilib, uchrashuv oldidan maslahat qildi. 10 nafar erkak, 12 nafar ayol sinfdoshlari bor ekan. Ayollardan pul yig'ilmaydi. Erkak sinfdoshlarning esa maslahatda qatnashayotganidan boshqasining shareoti og'irroq.

- Biz boshqalarday 600-700 ming so'mdan pul yig'maylik, - dedi ularidan biri. - To'rtalamiz 300 ming so'mdan o'rta tashlasak, 1 million 200 ming so'm bo'lar ekan. Bu bilan bir kafeda ixchamgina tadbir o'tkazsak bo'ladi. Albatta, dasturorda banu ananaslar bo'imasra ham, bu pulga olingan taomlar 22 kishining qornini to'y'azadi. Ortiqcha isrofarchilikning nima keragi bor?

- Qo'shilaman, - dedi ikkinchisi. - Ammo qolgan 6 nafar do'stimiz xafa bo'lmaydim?

- Ularga bildirmaymiz, - dedi uchinchisi. - Mana, oramizda Ahror - tadbirdor. Uchrashuv shuning hisobidan bo'lyapti, hech kim pul yig'maydi, hammamiz mehmonga boramiz, deb aytak, barcha sinfdoshlar

bexijolat kelaveradi. Keyin, dasturxon to'kin bo'ima-sa ham hech kim ko'ngliga olmaydi. Bu fikrimga hech biringiz qarshi bo'imaysiz, degan umiddaman. Nima deding, Ahrorboy!

- Sizlar nima desalarangiz – shu, jo'ralar! – dedi o'zini saxovatpesha boydekk his qilib, yuziga tabassum yugurgan to'rtinchid do'st.

HAZIL OILAVIY NIZOGA SABABCHI BO'LDI

Yana bir guruh sinfdoshlar uchrashuv uchun 800 ming so'mdan pul yig'di. 13 nafar erkak sinfdoshlar dan 3 nafari imkoniyati bo'Imagani uchun bu pulni topib berolmadni. Ammo oqibatlari do'stlari ularning ikki nafarin pul bermagan bo'lsa-da, holi-joniga qo'ymay uchrashuvga olib keldi. Birini ko'ndirolmadi.

Ayollar bilan jami 25 nafar sinfdosh uchun tadbir tashkil etildi. Dasturxon to'kin. Eng yomoni - spirtli ichimliklarning ko'pligi.

Birinchi ovqatni yeb, sinfdoshlar shahar aylangani chiqdi. Qaytbil kelib, ikkinchisini yedi. Ayollarning aksariyati uchinchini ovqat tayyor bo'lismeni kutmasdan uylariga ketishdi.

Ulardan biri yaxshi kayfiyatda uyiga kirib bordi. Ammo turmush o'rtog'i uni ko'ngildagidek kutib olibdi. Olibay janjal ayolning yuziga tarsaki tushishi dan boshlandi. Sababi esa...

...Tadbirda suratga tushish jarayonida shirakayf bo'lgan erkak sinfdoshlaridan biri maktab davrida jonidan ortiq sevganligini aytib, qo'lini uning yelkasi ga qo'ygan edi. Ayol jerkib berganida esa hazillashganini aytgandi. Targab ketmasligi iltimos qilinsa-da, surat ayolning turmush o'rtog'iaga yetib borgan edi.

ORTIQCHA PUL BOSHIGA MUSIBAT TUSHGAN USTOZGA BERILDI

Qo'tirbulloqlik bir guruh sinfdoshlar ham uchrashuv uchun pul yig'di. Har kim qurbi yetgani-chaga o'rtaq tashladi. Va mo'maygina pul to'plandi.

- Qorovultepalik do'stimmung aytishicha, 22 kishidan iborat sinfdoshlar 1 million 200 ming so'm evaziga tadbir o'tkazibdi, - dedi Dilshod sinfdoshlar bilan uchrashuv oldidan o'tkazilgan "maslahat oshi"da. - Biz ham 20-25 kishi bo'lamiz. Yig'ilgan pul esa ularni uchbaravar ko'p. Kelinglar, shu uchrashuv tadbirini ixchamgina qilib o'tkazaylikda, ortgan pulni yaqinda boshiga og'ir musibat tushgan ustozimizga beraylik. U kishining holdan xabar olib, ham ma'naviy, ham moddiy yordam ko'rsatamiz.

Quvvalla qishlog'ida har yili o'tkaziladigan sinfdoshlar uchrashuvidan iqtisod qilingan mablag' evaziga bir ziyoratgoh yildan-yilga obod bo'layotganini ham eshitganman. Bu kabi misollar ko'p, ammo uchrashuvni katta dabdabaga aylantirib, isrofgar-chilikka yo'l qo'yayotgan, spirtli ichimlik iste'mol qilishi natijasida turli ko'ngilzliliklar keltilir chiqarayotganlar ham kam emas. Kimo'zarga o'tkazilaygan tadbirlar ixchamlashirilsa, bir sinfa o'qigan qadronlarning barchasi har 10-15 yilda bo'lsa-da, imkon qadar diydorlashishi bor gap. Shuningdek, ortiga mablag' isrof qilinishining oldi olinib, xayrli ishlarga qo'l urilsa, qanchadan-qancha kemtik ko'ngillarga ko'tarinkilik bag'ishlanardi.

To'Iqin SIDDIQOV.

Ma'rifat

2023-yil 15-iyun,
payshanba

↓ "Zarafshon"ning 110 yilligi oldidan



Har qanday tahririyatda kotibiyan eng qizg'in ish va ijod jarayoni kechadigan joy sanalgan. Shuning uchun ham gazeta mas'ul kotibi o'ta mas'uliyatlari, keng mushohadali, metin irodali bo'lishi kerak.

2001-yilda olingan ushbu suratda o'sha paytda "Zarafshon"ning mas'ul kotibi bo'lgan Adham Hayitov (joyi jannatda bo'lsin!) va kotib yordamchisi Abdurasul Sattorovning ish vaqtidagi holati aks ettirilgan. Ular har bir maqolaning mazmu-ni, geografiyasini hamda ijtimoiy ahamiyati hisobga olib, sahifalarga mohirona joylashtirar edi.



mehribon ota. U turmush o'rtog'i Feruza Qurbonova bilan uch nafr farzandni tarbiyaladi, bugun olti nafranabirining sevimli bobosi.

Qutlug' 60 yoshni qarshi olayotgan ustoz jamoada yoshlarga har tomonlma o'rnak bo'lib kelmoqda. Ilhom Muqumovning kelgusi pedagogik faoliyatiga muvaffaqiyat, o'ziga sihat-salomatlilik, olsilaga tinchlik-xotirjamlik tilaymiz.

Xislat HAYDAROV,
SamDU biologiya fakulteti
professori.
Islom QOBILOV,
mehnat faxriysi.

Ustoz hayot yo'li – ibrat maktabi

Ilhom Muqumov 1994-yilda Samarqand davlat universiteti biologiya fakultetiga ishga keldi. Dastlab fakultet qoshidagi gerbariy markazida mudir, 1996-yil da Samarqand shahridagi Xalq tabobati institutida katta ilmiy xodim, so'ngira Toyloq tumani-dagi O'zbekiston Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutida katta ilmiy xodim vazifalarida mehnat qildi. Shuningdek, Toyloq tumani-dagi konserva zavodida direktor, universitet issiqxonasi boshlig'i si-fatida faoliyat yuritdi. 2020-yildan buyon biologiya fakultetining botanika kafedrasida dotsent lavozimida ishlaqmoqda.

1986-yilda universitetini bitirgan Ilhom Muqumov biologiya sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish maqsadida Toshkent shahridagi O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'simliklar moddalarini kimyozi institutiga kichik ilmiy xodim bo'lib ishga kirdi. Faoliyati davomida tinimi bilmay izlandi, o'qidi, bilmaganlarini ustozlaridan so'radi. Natijada 1993-yilda biologiya fanlar bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatliti himoya qildi.

Ustoz qayerdan mehnat qilmasin, izlanuvchanligi, mehnatsevarligi bilan jamaoa hurmatiga sazo-vor bo'ldi. Undagi vatanparvarlik, insoniylik, kamtarlik, o'ziga va shogirdlariga nisbatan talabchanlik, bag'rikengilik, rostgo'ylik kabi fazilatlar shogirdlari uchun katta mabkat bo'ldi. Ayni kunda uning yuzlab shogirdlari yurtimizning turli hududlarida mehnat qilmoqda.

Ustozlikni sidqildidan bajab kelayotgan Ilhom Muqumov oilada

Yurtdoshlarimiz Haj safariga yo'l oldi

13-, 14-iyun kunlari samarqandlik yurtdoshlarimiz muborak Haj ziyoratiga jo'nab ketdi.

- Bu yilgi mavsumda viloyatimizdan 19 guruhda 912 nafar ziyoratining Haj safariga borishi belgilangan, - deydi viloyot bosh imom-xatibi o'rinnbosari X.Sattorov. - Ular 4 ta aviareysda Samarqand xalqaro aeroportidan Madina shahriga kuzatilmoxda. E'tiborli, bu yil 65 yoshdan oshgan nuroniyalarga ham ushbu muborak ziyoratni ado etishga ruxsat berildi. Koronavirus pandemiyasi sababli o'tgan yil 65 yoshdan oshganlarning Hajga borishiga chelkov o'rnatildi.

Islomning besh arkonlaridan birini ado etish uchun o'zbekistonlik ziyoratchilarga Madina va Makka shaharlarida barcha shart-sha-

roit yaratilgan. Din ishlari bo'yicha qo'mita va O'zbekiston muslimonlari idorasining ishchi guruhlari ayni paytda ham Saudiya Arabistonida bu borada zarur chora-tadbirlarni ko'rmoqda.

- Dunyoda keng tarqalgan virus sabab ma'lum muddat haj ibodatini ado etish hech bir musulmonga nasib qilmadi, - deydi samarqandlik 78 yoshli Do'stmurod Eshimov. - O'tgan yil esa ziyoratga ruxsat berildi-yu, yosh cheklov o'rnatildi. Men ko'p yillik orzuim amalga oshmay qolishidan qo'rqqandim. Alloha shukurki, bu yildan yana yoshi ulug' insonlarga ham Hajga borish imkoniyati berildi. Shukrona aytilib, safarga otlayapmiz.

Bo'ljak hujirlari muborak safarga viloyat hokimligi va keng jamaotchilik vakillari kuzatib qo'ydi.

O'z muxbirimiz.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Djabarov Xasanga (1995-yil 12-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-“B” uy.

Payarig' tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Yarashov Shadmag'a (2018-yil 6-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumanı Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

Payarig' tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Saydirasulova Xursandga (2020-yil 30-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu

munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumanı Chelak shaharchasi, Istiqloq ko'chasi, 73-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Normatov Murod To'ychievich notarial idorasida marhum Xayrulloyeva Mi-yassarga (2008-yil 13-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoxda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Normatov Murod To'ychievich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumanı Andijoni mahallasi.

BEKOR QILINADI

Qo'shrabot tumanidagi Xandamova Zamira Par-dayeva yakka tartibdag'i tadbirdorining (STIR: 521709579) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Siyob tibbiyot kollejidan 2019-yilda Qodirov Baxtiyor Bultak o'g'li nomiga berilgan ro'yxat raqami 441, K 5576188 raqamli diplomning ilovasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Bir tomchi qon ham bemorlarga hayot bag'ishlaydi

Viloyat qon quyish markazida
kalqaro donorlar kuni munosabati bilan tashkil etilgan
tadbirda viloyat hokimligi, "Nuroniy" jamg'armasi
viloyat bo'limi hamda keng
jamoatchilik vakillari ishtirok
etib, shu sohada mehnat
qilayotgan fidoyi shifokorlar
va faxriy donorlarga o'z minnatdorliklarini izhor etishdi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar beg'araz donorlikning ahamiyati, mazkur harakat tufayli hayoti saqlab qolinishotgan bemorlar haqida gapirdi. Donorlik aksiyalarini yanada kengaytirish, jarayonda fuqarolar faoliyini oshirish lozimligi ta'kidlandi.

Keyingi yillarda yurtimizda noyob yurak operatsiyalari, inson tana a'zolarini ko'chirib o'tkazish kabi murakkab jarroqliy amaliyotlari bajarilishi ham xavfli kasalliklar diagnostikasining yaxshilanishi tufayli sifatli qon komponentlariga bo'lgan ehtiyoj orbitib bormoqda. Respublika qon quyish markazining hududlardagi qon bilan ishslash xizmati muassasalariga ko'chma donorlik jamlamasini o'rnatilgan 13 ta maxsus avtobus topshirilishi bu muammo yechimiga xizmat qilishi kutilmoqda. Jumladan, viloyat qon quyish markaziga ham xuddi sunday ko'chma donorlik avtobusini ajratildi.

- Viloyatimizdagi shifox